



Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy

ISSN (E): 3067-7874

Volume 01, Issue 02, May, 2025

Website: usajournals.org

***This work is Licensed under CC BY 4.0 a Creative Commons Attribution
4.0 International License.***

MODEL FOR IMPROVING THE MECHANISM FOR THE DEVELOPMENT OF VALEOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Sardorkhon Kuvondikov

Doctor of Philosophy and Pedagogical Sciences, Professor

National Pedagogical University of Uzbekistan

Named After Nizami

Abstract

This article used the criteria and indicators for the development of the competence of civil and national pride in future teachers as indicators of the assessment of upbringing in the introduction of the “concept of continuous spiritual education”. As a result, the possibility of diagnosing future educators in student’s readiness to form a competence of national pride has increased. These proposals made it possible to prepare future educators for educational activities, to develop an active civic position in them.

Key words: Consciousness of national pride, patriotic worldview, spiritual-moral, civil-patriotic, military-patriotic, sports and patriotism, pedagogy.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimi, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalarida o‘quvtarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini rivojlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘ymasligi, ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’milanishi, ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati [Error! Reference source not found.] kabilar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldaggi PQ-3151-sodan “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari



Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy

ISSN (E): 3067-7874

Volume 01, Issue 02, May, 2025

Website: usajournals.org

***This work is Licensed under CC BY 4.0 a Creative Commons Attribution
4.0 International License.***

va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ularning kasbiy kompetentligi bilan insoniy fazilatlarini uyg‘unlashtirish, professor-o‘qituvchilarining tarbiyaviy mas’uliyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uyg‘unligini amalda ta’minalash uchun fanlarning har bir mavzusidagi tarbiyaviy maqsaddan unumli foydalanilishini ta’minalash” [1] kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishmcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta’lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish; davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar hamda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyati oliy ta’lim muassasalari tomonidan televiedenie va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e’tiboriga yetkazilishini ta’minalash kabi muhim vazifalar belgilab berildi [**Error! Reference source not found.**].

Ayniqsa, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da talabalarda milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq qator muhim yo‘nalishlar belgilab berildi [**Error! Reference source not found.**]:

- davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta’lim-tarbiya usullaridan foydalanish;
- yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog‘lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni



Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy

ISSN (E): 3067-7874

Volume 01, Issue 02, May, 2025

Website: usajournals.org

***This work is Licensed under CC BY 4.0 a Creative Commons Attribution
4.0 International License.***

kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

- talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishi, ular tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish, Vatanimiz istiqboli yo‘lida birlashtirish maqsadida ta’lim-tarbiyaning ta’sirchan usullari, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda ularning qiziqishini e’tiborga olish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash;

“Maktab – ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i” konsepsiysi doirasida oliy ta’lim muassasalarining umumta’lim maktablari bilan o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo‘naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalarda mentorlik modeli asosida hamkorligini rivojlantirish va h.k

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagい PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “Pedagog xodimlarning qadr-qimmati va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma’naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish”, bugungi islohotlarning mohiyatini yoritishga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil etish masalalari alohida e’tirof etilganligida ko‘ramiz [**Error! Reference source not found.**].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4307-son [**Error! Reference source not found.**] hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [**Error! Reference source not found.**]gi qarorlarida “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko‘maklashish” muhim vazifa sifatida belgilab berilgan.



Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy

ISSN (E): 3067-7874

Volume 01, Issue 02, May, 2025

Website: usajournals.org

***This work is Licensed under CC BY 4.0 a Creative Commons Attribution
4.0 International License.***

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan rivojlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emasligi, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida etarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayotganligi alohida ta'kidlab o'tilib, "targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish" [Error! Reference source not found.] muhim yo'nalish sifatida belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son Qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-milliy g'urur ruhida tarbiyalash" Konsepsiyasida milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan etuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash; yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlарimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish; har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash zarurati alohida ta'kidlanadi. Binobarin, O'zbekiston manfaatlарiga nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida sadoqatli bo'lish, ularni himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish - bularning barchasi bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish muhim ahamiyatga ega.

References

1. Atadjanova Sh. Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2001. – 136 b.
2. Балагланов А.Р. Патриотическое воспитание младших школьников средствами изобразительного искусства: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Кострома, 2000. – 27 с.



***Modern American Journal of Linguistics,
Education, and Pedagogy***

ISSN (E): 3067-7874

Volume 01, Issue 02, May, 2025

Website: usajournals.org

***This work is Licensed under CC BY 4.0 a Creative Commons Attribution
4.0 International License.***

3. Бейсембаева А.А. Патриотическое воспитание старшеклассников средствами казахского героического эпоса. Канд.пед.наук.....автореф. – Алматы: 2004. – 23 с.
4. Галиахметов И.Р. Патриотическое воспитания школьников и пути его совершенствования. – Казан, 2001. – С.61-62.
5. Горбова М.А. Воспитания патриотизма у старших классников игровыми формами турстко-краеведческой деятельности: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – М., 1999. – 24 с.
6. Ильин И.И. Формирование патриотическое отношений у студентов: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Тамбов, 2003. – 24 с.
7. Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Тошкент, Ўзбекистон, 1996. – 139 б.
8. Каган М.С. Гражданское общество как культурная форма социальной системы // Социально-гуманитарные знания. – М., 2000. - №6. – С.49-50.
9. Калдыбекова А.С. Интернациональное воспитание учащихся в старших классах казахской школе в процессе изучения родной литературы (На материале казахских школ Республики Узбекистан): Дисс. ... канд.пед.наук. – Т., 1993. – 136 с.
10. Караковский В.А. Стать человеком. Общечеловеческие ценности – основа целостного учебно-воспитательного процесса. – М., 1993. – 80 с.
11. Batirovich, T. A. (2022). Challenges and solutions to increase the efficiency of graphic education on the basis of interdiscipline membership. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(1), 265-268.
12. Muxammedova, X. E. (2024). THE IMPACT OF INDUSTRY NOVEL IN CHARLOTTE BRONTE WORKS. Science and innovation, 3(Special Issue 2), 87-89.
13. Rifovna, T. G. (2022). The specificity of the school "rivoge"(development) in the development of the professional competence of the future primary education teacher. Conferencea, 478-480.
14. Тожибоева, Г. Р. (2022). Профессиональная компетентность учителя начальных классов. World scientific research journal, 2(1), 94-99.



***Modern American Journal of Linguistics,
Education, and Pedagogy***

ISSN (E): 3067-7874

Volume 01, Issue 02, May, 2025

Website: usajournals.org

***This work is Licensed under CC BY 4.0 a Creative Commons Attribution
4.0 International License.***

-
15. Хамракулова, Б. А. (2024). Формирование глобального восприятия механизмов разработки педагогических технологий у будущих учителей. Журнал гуманитарных и естественных наук, (7), 167-175.
 16. Каримбеков С. Военно-патриотическое воспитание учащихся старших классов в процессе преподавания литературы (на материале русской литературы): Дисс.канд.пе.наук. – Т., 1991. – 137 с.
 17. Кирьякова А.В. Теория ориентации личности в мире ценностей. – Оренбург: Изд-во «Южный Урал», 1996. – 188 с.
 18. Клименко И.М. Формирование патриотизма в процессе обучения истории и внеучебной работы: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Екатеринбург, 1999. – 22 с.